

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 2 (2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“Adabiyotshunoslik” – “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **“Adabiyotshunoslik”** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqq boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Iqboloy Adizova

Millatni uyg'otuvchi kuch5

Shermuhammad Amonov

Ahmad Tabibiyning mustazod she'rlarga bog'langan taxmislari 20

Furqat To'xtamuratov

Muhsiniy she'riyatida qo'llangan ma'naviy san'atlarning ijodkor g'oyaviy niyatini ochishdagi o'rni38

Hulkar Sulaymonova

“Rasailu-l-Xorazmiy” asarining qo'lyozma nusxalari geografiyasi52

Sanobar Muxamedxodjayeva

Alloma Mahmud Zamaxshariy va uning ijodiy faoliyati64

Aziza Muratova

Alisher Navoiy ijodida Yusuf (a.s.) obrazi75

Aziza Almardonova

Orifona g'azallarda nafs tarbiyasi85

Nargiza Boymuratova

Lutfiy she'riyatida orif obrazi94

Kamola Allanazarova

She'riyatda davr muammolari va ma'rifat talqini105

Nafisa Tuksanova

Sa'dulla Siyoyevning “Shaybonixon” obrazini yaratishda badiiy mahorat117

Mubina Abbasova

Yangi O'zbekiston boburshunosligi123

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug'ov

Badiiy asarda adabiy qahramon portretining o'rni va ahamiyati132

Islomjon Yoqubov	
“Jaloliddin Manguberdi” dramasi­ning badiiy jozibasini	208
Umida Rasulova	
Hikmatlarda odam va olam konsepsiyasi	221
Tozagul Matyoqubova	
Fikr va tuyg‘uni yagona rakursda uyg‘unlashtirgan shoir	230
Sarvinoz Rasulova	
Tohir Malik asarlarida qatag‘on qurbonlari taqdirining aks etishi	241
Matluba Norbaboyeva	
O‘zbek xalq maqollarida yetimlik motivi talqini	251
Usmonova Sharifa	
Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida obrazlar xilma-xilligi	260
Sarvinoz Rasulova, Madina Bolliyeva	
Balladada tuyg‘u tasviri	270
Oygul Matkurbanova	
Qamchibek Kenja hikoyalarida ayol obrazi	279
Dilovar Nurmuradova	
Abdurashid Nurmurodov ijodida urush mavzusining aks etishi	291
Shalola Davletova	
Borxes ijodining falsafiy talqini	300
Ma’rifat Alimqulova	
Mamatqul Hazratqulov hayoti va ijodiga chizgilar	309
Habiba Ergasheva	
Faxriyorning she’riy tarjimalari	320
Muharram Ibodullayeva	
Biografik metodning badiiy asarni o‘rganishdagi imkoniyati ...	330

Tohir Malik asarlarida qatag'on qurbonlari taqdirining aks etishi

Sarvinoz Rasulova¹

Abstrakt

Mazur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakili, O'zbekiston xalq qahramoni Tohir Malikning "Ov", "So'nggi o'q" qissalari, "Shaytanat" romani va "Erkin" hikoyasida qatag'on qurbonlari qismatining yoritilishi xususida fikr bildirilgan. Maqolada "xalq dushmani" tamg'asi bilan hibsga olinganlar, ularning ayollari, farzandlarning obrazlari tahlil etilgan, ilmiy adabiyotlardan statistik ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumki, Tohir Malik detektiv, fantastika janrlarida ijod qilib, adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Maqolada adib qaysi janrda qalam tebratmasin, asarlarida o'ttizinchi, elliginchi yillarning "siyosiy mahbus"lari qismati mohirona yoritib berilgani xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, "Shaytanat" qissasining o'q ildizi ham mash'um qatag'on siyosatining og'ir oqibatlariga borib taqalishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *qatag'on qurbonlari, hikoya, siyosiy mahbus, qamoq, qissa, obraz, milliy fantastika, detektiv.*

Kirish

Adib XX asrdagi o'zbek ziyolilari faoliyatini o'rganib, Abdulla Avloniyning hayoti asosida "Savohil" (avval "Qaldirg'och" nomida nashr etilgan) va Mirzakalon Ismoilij xotirasiga bag'ishlab "Ozod inson haqida qo'shiq" qissasini yozdi. Buning mantiqiy davomi o'laroq "So'nggi o'q", "Ov" qissalarini yozdi. "So'nggi o'q" asosida etti qismli telefilm ham yaratiladi. "Iblis devori" qissasi asosida badiiy film suratga olingan. Ushbu asarda adib insonning ma'naviy-ruhiy olamini tadqiq etishga e'tibor qaratgan.

"Qaldirg'och" asarida adib Abdulla Avloniy xarakterini yaratgan. "Ozod inson haqida qo'shiq" qissasida esa tog'asi Mirzakalon Ismoilij obrazini gavdalantirgan. Hayotiy qahramonning badiiy adabiyotda tasvirlanishining o'ziga xos qonun-qoidalari bor. Bu adabiyotshunoslikda biografik yondashuv metodi deyiladi.

¹ Rasulova Sarvinoz – filologiya fanlari bo'yicha faksafa doktori (Phd), Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: rasulovasarvinoz@navoiy-uni.uz; sarvina_ok@mail.ru

ORCID ID: 0009-0003-8717-2568

Iqtibos uchun: Rasulova S. 2025. "Tohir Malik asarlarida qatag'on qurbonlari taqdirining aks etishi". *O'zbekiston: til va madaniyat. 2* (2): 241-250.

Yozuvchi “Qaldirg’och” qissasining yaratilishi haqida shunday deydi: “Abdulla Avloniy hayoti haqida asar yozishni niyat qilib ish boshlaganimda ikkilandim. Olim, donishmand, siyosiy arbob, elchi. Bir chekkadan yozib ketaverish mumkin, tarixiy ma’lumotlarni yetarli to’plaganman, hatto SSSR tashqi ishlar ministrligi arxivi bilan ham bog’langanman. Lekin asarning qiziqarli bo’lishi uchun xizmat qiluvchi ziddiyat zaif edi. Agar kuchaytiray desam, yolg’on gaplarni ko’p aralashtirishga to’g’ri keladi. Shunda bosh qahramonning ismini o’zgartirdim, asarni Abdulla Avloniyga bag’ishladim. Bu bilan yozish chog’ida imkoniyatim kengaydi. Siyosiy-ma’rifiy yo’nalishdagi asarni qiziqarli yozishning boshqa imkonini topmadim” [Namozov A., 2016, 35]

Taniqli adib Tohir Malikning tog’asi Mirzakalon Ismoiliy 1949-yilda “xalq dushmani” degan tuhmat bilan qamoqqa olingan. Tog’asi oqlanib chiqqanida adib ikkinchi sinfda o’qir edi. Ustoz-tog’a o’gitlarini olgan Tohir Malik aksariyat asarlarida qatag’on qurbonlari, vatanidan judo bo’lganlar taqdiri aks ettirgan. Adib shunday yozadi: “Xalq o’zining asl farzandlarini yurakdan yulib tashlashlariga yo’l qo’ymaydi. Qodiriy, Cho’lponni, Fitratni... dushman deb ishontirishga harakat qildilar. Xalq ishonmadi bu tuhmatga. Bu farzandlariga bo’lgan mehr, ishonch avloddan avlodga o’tdi... Ularga achinish emas, ular bilan faxrlanishimiz zarur. Faqat nochor odamlargagina achinadilar. Bechora, ya’ni chorasiz yo’q, chorasiz deydilar. Ular bechora emas, ular buyuk edilar. Biz ularning qamalganlari, otilganlari uchungina e’zoz etmaymiz. Qamalganlar, otilganlar ko’p. Biz Cho’lpon, Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir, Elbek, G’ozi Yunus...larni buyuk iste’dod egalari bo’lganlari uchun boshimizga ko’taramiz. Ana shu buyuk iste’dodlarni xalqqa, ayniqsa, yoshlarga bildirish, tushuntirish bizning burchimiz”. Shu ezgu niyatni ko’zlagan yozuvchi Tohir Malik asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, aksariyatida qatag’on qilingan insonlar taqdiri bilan yuzlashamiz. Jumladan, “So’nggi o’q”da Jahongir ikkinchi marta hibsga olinganida “siyosiy mahbus” sifatida qamaladi, mazkur asardagi mulla Nizomiddin, Amir Temur davri tarixi bilan shug’ullangan rus olimi Sergey Komlev, Berlinda o’qigan talaba Tolibjon, yosh shoir Islomxon, “Shaytanat” romanida Asadbekning otasi, “Devona”da yosh vrach Dilmurod va uning qaynotasi professor Razzoqov kabi obrazlar orqali adib qatag’on qurbonlarining mash’um taqdirlarini yoritib bergan.

Asosiy qism

Qatag’on davrida sovetlar “xalq dushman”larining oilalariga, bolalariga ham omonlik bermadilar. Begona yurtlardagi

qamoqxonalarda jon bergan, azob chekkan, ayollar oz bo'lmagan. Qozog'istonda Aljir ("Акмалинский лагерь жён изменников Родины") tashkil bo'lgan [Тарихнинг ҳасратли саҳифалари, 2006, 190]. "NKVDning 00486-sonli buyrug'i bo'yicha 1938-1946-yillarda Qarag'andadagi "Aljir" ("Акмалинский лагерь жён изменников Родины") lagerida "Vatan xoinlarining oila a'zolari"dan 6500 ayol jazoni o'tagan... Qarag'anda lageridagi mahbus ayollar jazo muddatini o'tayotganlarida 1507 nafar farzand ko'rganlar, bu bolalar ko'pincha sevgi asosida emas, zo'rlik asosida dunyoga kelganlar" [Шамсутдинов 2007, 9]. "So'nggi o'q" qissasida ana shunday mazlumalarning ayanchli qismatidan bir lavha bayon etilganki, "ustilariga kalta paxtali qora to'n, oyoqlariga qo'pol botinka kiygan, sochlari olib tashlangan, qora ro'mol o'rab olgan, kirtaygan ko'zlari ma'yus boquvchi turli yoshdagi ayollar" [Малик Т., 2005, 405] ning sovuq o'lkadagi lagerda tahqirlanishlarining dahshatli tasviri o'quvchini sergaklantiradi.

"Xalq dushmani tamg'asi bilan qatag'on bo'lganlarning farzandlari maxsus bolalar muassasalarida saqlangan. 1937-yil 15-avgustdan 1939 yil yanvarigacha Ittifoq bo'yicha 25342 bola oilasidan ajratib olingan, ulardan 22427 nafari xalq maorifi komissarligi hududidagi bolalar uylariga va mahalliy bog'chalarga yuborilgan, shundan 1909 nafari Moskvada bo'lgan, 2915 nafari boshqalarga boqish uchun oilalarga qaytarib berilgan. Bu bolalarning yoshi 15gacha bo'lgan [Шамсутдинов Р., 2007, 10]. Yoshi 15dan yuqori bo'lgan bolalar "ijtimoiy xavfli" hisoblanib, qamoqqa olingan va hukm qilingan". O'ttizinchi, elliginchi yillardagi mash'um qatag'on siyosati xalqimiz bag'rida shunday chuqur chandiq qoldirdirki, bu chandiqning og'riqlari hanuzgacha azoblab keladi. Tohir Malikning mashhur "Shaytanat" asarining o'q ildizi ana shu dardli og'riqlarga borib taqaladi. Dadasi chana, onasi uka olib kelishini kutib o'tirgan Asadbekning otasini "xalq dushmani" sifatida olib ketishgach, xo'rlik, alam to'lgan murg'ak yuragiga shayton uya qurdi va o'ch olish istagida yongan bola kelajakda shaytonsaroy bunyodkorlaridan biriga aylanadi. Murod Mansur yozganidek: "Bekorga otalarimizdan ayirmagan ekanlar bizni! Mulla buvalari omon qolgan bolakaylar baxtli ekanlar! Issiq bag'irlaridan chiqarmadilar. Nima yaxshi, nima yomon, nima harom, nima harish, harqalay ajratadigan qildilar. Ammo mulla buvalari, opoqdadalari sovuq o'lkalarga surgun etilib, otalari urushda, qamoqlarda qolib ketganlarchi? Ularning yozug'i ne edi? Murg'ak yuragiga yovuzlik urug'i tuxum qo'yib ulgurgan bolakaylar, yetimxonalarni to'ldirgan "zumrasha"larning gunohini

kim yelkasiga olgay? Qaysi jamiyatning sud kitobiga yozgaymiz? Asadbeklar shu imonsiz jamiyatning mevalari, uning qasos o'ti ko'zini ko'r qilgan "o'g'lon"lari emasmi?" [Мурод Мансур, 1997, 368]. Asadbek keyinchalik otasini hibsga olgan kishilarni topib ayovsiz jazolaydi, ammo bu uning alamli yuragiga malham bo'la olmaydi, qalbi kemptikligicha qolaveradi.

Tuhmat va nohaklik qurbonlarining ayanchli qismati Vatan hurligi uchun jon bergan, ammo Vatan tuprog'ida yotish nasib etmagan shahidlar ruhini shod etmoq maqsadida yozilgan "Ov" qissasida va chimildiq ko'rmay turib Stalin zamonining qonsiragan ayovsiz qilichidan o'lim topgan jabrdiydalar xotirasiga bag'ishlangan "Erkin" hikoyasida yana-da batafsil yoritilgan. Qatag'on yillari suronidan foydalanib, amalini suiste'mol qilgan tergovchi Javlon Jabborov shaxsiy adovati sabab Erkinning otasini "xalq dushmani" deb ayblaydi. Otaning bevaqt vafoti manfur tergovchi Javlonning yuragidagi adovatni so'ndira olmagach, u 17 yoshli Erkinni hibsga olib, ma'naviy va jismoniy qiynoqlarga solish orqali huzurlanadi. Ziyoli insonning farzandi bo'lgan Erkin tergovchining savollariga dosh berolmay, ruhiy va jismoniy azoblardan qiynalib, o'z tomirini tishlab uzib tashlaydi. U jonidan kechib bo'lsa-da, otasining xotirasini pok saqlaydi, ruhini e'zozlaydi. Begunoh Erkin ham qatag'on davrining qurbonlaridan biriga aylanadi.

Ma'lumki, jamiyat illatlari tashqaridan turib xolisona kuzatilganda yorqinroq namoyon bo'ladi. Tohir Malikning "Ov" qissasi fantastik asar. Adib fantastika orqali ona yerimizni o'zga sayyoralik fazogirlar ko'zi bilan kuzatib, qatag'on qurbonlarining ayanchli taqdirini qalamga oladi. Tog'asi Mirzakalon Ismoilining "Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top" o'gitiga amal qilgan Tohir Malik o'z yo'lini tanladi: diqqatini milliy fantastika yaratishga qaratdi. "Falak" qissasida adib fantastikani tarixga bog'lagan edi. "Ov"da ham tarixga murojaat qildi, biroq bu qissada yetuk adibning tajriba va mahorati yaqqol aks etib turibdi. Qissada nohaq hibsga olinib, bitta barakka qamalgan to'rt inson uchrashadi. Ularning barchasi siyosiy mahbus, ya'ni "xalq dushmani", ammo dunyoqarashi, fikrlari, e'tiqodi bir-biriga aslo o'xshamaydi, hattoki, bir-birini rad etadi. Bular Rahmatulloh – Makkada tug'ilib, ulg'aygan, ota yurtini ko'rishga kelib, ahli mo'minga va'z aytib yurganida hibsga olingan chin musulmon; Mirhosil – o'z yurtini hurriyat nafasidan bahramand bo'lishini istagan shoir yigit; qizil komandir – Madrasa ko'rgan, Nikolay podshoning nomini xutbaga qo'shib o'qish durust emas, degani uchun madrasadan quvilgan,

achchiq ustida bir umrga dahriyga aylangan, haq so'zni aytib qo'yib qamalgan kishi; shuningdek, Komissar – bolsheviklarni ko'rolmaydigan, ammo ko'pchilikning yostig'ini quritib, qarg'ishiga qolishda ulardan sira qolishmaydigan sobiq amaldor, qamoqxona boshlig'ining ayg'oqchisi va sotqin. Qissada zerikkan paytlari "xalq dushmanlari"ni ayg'oqchilar yordamida qamoqxonadan qochishga undab, qalbida umid uchquni bilan o'rmon bo'ylab qochayotgan mahbuslarni ko'ngilxushlik uchun ovlashdek jirkanch o'yinni o'ylab topgan qamoqxona Boshlig'i obrazi ham mavjudki, uni mavjud siyosiy tuzum oddiy dehqondan ashaddiy kallakesarga aylantirgan. Asarda Rahmatulloh va Mirhosilning ismlari tilga olingan xolos. Yozuvchi qattiq adashgan, riyokorlik qilgan, iymonini sotgan, insoniylikdan yiroqlashgan qahramonlarga ism berishni lozim topmagan. U bunday illatli kishilar obrazlarini umumlashtirib, ularni ismsiz, ya'ni Boshliq, Yordamchi, Komissar, Qizil Komandir, Vakil deb atagan.

"Tohir Malik "Ov" qissasi fantastika orqali ona yerimizni o'zga sayyoralik fazogirlar ko'zi bilan kuzatib, qatag'on qurbonlarining ayanchli taqdirini qalamga oladi. "Falak" qissasida Tohir Malik fantastikani tarixga bog'lagan edi. "Ov"da ham tarixga murojaat qildi. Har ikkala qissada ham yetuk adibning tajriba va mahorati yaqqol aks etib turibdi. Qissada nohaq hibsga olinib, bitta barakka qamalgan to'rt inson uchrashadi. Ularning barchasi siyosiy mahbus, ya'ni "xalq dushmani", ammo dunyoqarashi, fikrlari, e'tiqodi bir-biriga aslo o'xshamaydi, hattoki, bir-birini rad etadi" [Rasulova S., 2025, 126]. Bu haqda adabiyotshunos B.Karimov shunday deydi: "Ov" qissasida fantastika bilan asoslangan "ilohiy" yordamchi bug'u obrazi bor. Qissada qatag'on balosiga uchragan, 1938-yillarda Sibir mahbusxonalarida kun kechirayotgan kishilar – Rahmatulloh, Mirhosil, Komissar, Qizil komandirlarning qisqacha hayoti beriladi. Bunda Rahmatulloh iymon-e'tiqodli, metin irodali kishi sifatida tasvirlanadi. Diniy pafosi kuchli bo'lgan bu qissada e'tiqod va e'tiqodsiz kishilarning azob-uqubatlarga, sinovlarga bardoshlari botinan muqoyasa qilinadi" [Karimov B., 2018, 21].

Asar muxtasar muqaddima bilan boshlanadi: "Bu tong Unet sayyorasi tashvishli xabar bilan uyg'ondi. Bir etagi dengizga tutash baland tog' siynasiga joylashgan kuzatuv maskani "1248" raqami bilan belgilangan sayyora yetib borgan koinot kemasining halokatga uchragani haqida ma'lumot tarqaldi. Kema nima sababdan sayyora sathiga qulagani noma'lum edi. Unet olimlariga ma'lum bo'lgan narsa – fazogirlarning uchtasi halok bo'lgan. Birovi hayot, ammo uning-da qismati qorong'i.

O'sha tong unetliklar taqvimida 2419-yil, erta kuz oyining o'n birinchi kuni boshlandi. Unetliklar "1248" sayyoraning nomi "Yer" ekanini, kemalari Yer vaqti bilan 1908-yil iyunining o'ttizinchi tongida halokatga uchraganini keyinroq biladilar. Tirik qolgan yagona fazogirning taqdiri esa ularga uzoq yillar noma'lum bo'lib qolaveradi" [Тоҳир М., 2011, 4]. Qissa voqealari 30 yildan so'ng sodir bo'lgan, ya'ni 1938-yilda. Ayni shu yilda ko'plab ziyolilarimiz nohaq qamalib, qatag'on qurbonlariga aylanishgan. Adib ana shunday insonlarning taqdiri qanday ayanchli tugagani mana asar misolida ko'rsatmoqchi bo'lgan. Muxtasar xotimada esa "Unet" sayyorasidan kelgan fazogir o'zga sayyoraliklar yerda yo'qolgan vakilini izlab ikkinchi marta yerga kelgani, lekin hech qanday iz topa olmaganligi bayon qilinadi. Ularning fazogir vakili halokatdan oldin bug'u shakliga kirib keyin asl holiga qayta olmaganini bilishadi. Ularga eng oxirgi kelgan xabar quyidagicha bo'ladi: "Men o'zimiz kabi musulmon bandani uchratdim. Uni qutqarib qola olmadim. Armon bilan ketmoqdaman...". Rahmatulloh va uning barakdoshlarini qo'riqlay olmagan bug'u ularning qabri tepasida halok bo'ladi. Uchinchi kema Yer vaqti bilan oradan ellik yil o'tgach keladi. Ular yerga tushadilar. Rahmatulloh ko'milgan, bug'u jon bergan joyni topadilar. O'sha yerda marhumlarga janoza o'qiladi.

Voqealar, asosan, qamoqxona va o'rmonda sodir bo'ladi. Bu yerda qamoqxona va o'rmon adabiy makon hisoblanadi. Asarda qamoqxona tasviri quyidagicha chiziladi: "Bu qamoqxona qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuymaydigan, ammo qushning ham, odamning ham yetib kelmog'i mushkul bo'lgan uzoq bir o'rmonzorga joylashgan edi" [Тоҳир М., 2011, 5]. Tasvirdan mu'lum bo'ladiki, bu yerda hayot kechirish ham oson emas. Bu yerdagi siyosiy mahbuslarga odam emas, xalq dushmani deb qaralgan. Qamoqxona boshlig'i ularni ko'rarga ko'zi bo'lmagan. Boshliq osuda hayotga toqat qila olmagan. Shuning uchun qamoqxonadagi o'g'rikallakesarlarni ishga solib siyosiy mahbuslarni do'pposlatar va shu yo'l ko'ngil xumorini yozardi. Keyinchalik boshliqqa bu ham kamlik qildi. Endilikda u o'yinning yangicha usulini o'ylab topdi. Avvallari o'rmonda har xil hayvonlarni ovlagan Boshliq endi odamlarni ovlay boshladi. Ularni qochishga undab, otib o'ldirardi.

Asarda hibsonadagi 9-barak tasviri berilgan: "Toza havodan nafas olishga ko'nikkan ta'bi nozik odam to'qqizinchi barakka kirib qolsa, bu joyning qo'lansa hidiga toqat qilolmay qochib chiqishi tayin. Odam bo'ynidan ikki qarichgina balandroq qilib solingan bu bostirmaning beldan sal yuqorisigina yer sathidan tepada. Ikki

shapaloq hajmdagi darchalardan xira nur bazo'r kiradi. Qo'pol eshik ochilgan mahalda toza havo yopirilib kirishi mumkin. G'o'lalar tirqishidan sizib o'tuvchi havo esa tamaki, ter va allambalolarning hidini haydab chiqara olmaydi" [To'xir M., 2011, 8]. Mana o'sha davrdagi siyosiy mahbuslarning qamoqxonadagi hayoti. Asarda yana "Tunnel" tasviri ham beriladi: "Tunnel" deganlari simto'r bilan o'ralgan itxonaning o'rtasidan kesib o'tuvchi dahlizmonand yo'l. Hamisha yarim och holda saqlanuvchi, "bos!" deyilsa, har qanday tirik jonni g'ajib tashlashga tayyor itlar orasidani o'tib kelishning o'zi bo'lmaydi" [To'xir M., 2011, 17]. Asarda bu ham Boshliqning bir ixtirosi ekanligi aytiladi. Jazoga loyiq mahkumlarni shu tunneldan o'tishga majburlaydi. "Xalq dushmanlaridan hatto itlar ham hazar qiladilar", deb ularning talanishlarini huzur bilan kuzatadi. "Asarda qahramonlarning bolaligi, ota-onalari, oilasi, bola-chaqasi, ilm olishi kabi voqealar retrospektiv syujet elementidan foydalanib gavdalantiriladi. Shu o'rinlarda yordamchi makonlar tarvirlanadi. Asarda Andijon, Namangan, Chust, Toshkent kabi joy nomlari qayd etiladi. Qamoqxonada siyosiy mahbuslar o'zlarining hayot yo'llarini sarhisob qiladilar. Iymoni but, o'z e'tiqodiga sodiq qahramonlar zulm va zolimlarga bosh egmaydi.

"Ov" da Rahmatulloh qaynotasini tushidako'radi: "Rahmatulloh turli xayollarga bandi bo'lib uzoq yotdi. Mahbuslarning u yoqdan-bu yoqqa yurishlari tindi. G'ong'ir-g'ong'ir ovozlari ham eshitilmay qoldi. Buning o'rnini turli ohanglardagi xurrak, alahsirashlar egalladi. Tun yarimlaganda Rahmatullohning ko'zi ilindi. O'n daqiqagina davom etgan uyqusida g'alati tush ko'rdi. Tushida mudarrisi – qaynotasi uch bo'lak oq surpni unga uzatyapti. Bittasi senga, qolgani sheriklaringga", dermish. "Men bular bilan ketayinmi? Unda to'rt kishi bo'lamiz", dermish Rahmatulloh. "Bittangga lozim emas". U shunday deb shoxdor bug'uga aylanib qolganmish. So'ng Rahmatulloh unga minib olganmish. Bug'u yeldek uchib, uni to'g'ri Ka'batullohga olib borganmish... "Hayriyat, bomdodga yetib keldik", dermish Rahmatulloh. Keyin muazzining ovozi eshitilibdi: "Allohu akbar!". Rahmatulloh Makkai mukarramada ekanida ba'zan azon tovushini eshitib uyg'onardi. Subhi sodiqda yangragan azon ovozi uning ruhiga madad berar, yaxshi kayfiyatda boshini yostiqdan ko'tarardi. Hozir ham qush uyqusidan shu holda uyg'ondi. Qulog'iga azon tovushi boshqa eshitilmadi. O'zini Ka'batullohda emas, yana sassiq barakda ko'rib, yuragi ezildi" [To'xir M., 2011, 36]. Bu tush Rahmatullohning umri o'z poyoniga yetayotganidan dalolat beradi. Qaynotasi bergan oqlik u va uning ikki do'stiga kafanlik

edi. Qamoqxonadan ular to'rt qishi bo'lib qochadi. Adib to'rtinchi mahbusni kafanga noloyiq ko'radi va shuning uchun uchta kafanlik beradi.

Xulosa

Adib qaysi janrda qalam tebratmasin, qatag'on yillarining dahshatlari, beayb qurbonlari taqdirini mohirona tasvirlagan. Tohir Malikka xos uslub – asarni Yaratganga hamd aytib, duo bilan boshlash, Qur'oni Karimdan oyatlar keltirish yana-da samimiylikka sabab bo'lib, o'quvchining qalban poklanishiga, voqealarni yurakdan his qilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

- Мансур Мурод. (1997). Асадбеклар фожиаси. “Шайтанат”нинг 3-китобига сўнгсўз. – Т., – 368 б.
- Namozov A. (2016). Tohir Malik gurunglari. – Toshkent: O'zbekiston. – 252 b.
- Репрессия. 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы большого террора из Узбекистана, 1937 год, декабрь. – Т.: Шарқ, 2008.
- Rasulova S. (2025). Tohir Malik qissalari poetikasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Т. – 149 b.
- Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. (2006). Масъул муҳаррир: филол. ф.д, проф. Н.Каримов. – Т.: Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2004). Танланган асарлар. 1-жилд. – Т., Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2004). Танланган асарлар. 2-жилд. – Т., Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2005). Танланган асарлар. 3-жилд. – Т., Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2011). Ов. – Т., Шарқ.
- Шамсутдинов Р. (2007). Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август – 5 ноябр), 2-китоб / Масъул муҳаррир: филол. ф.д, проф.Н.Каримов. – Т.: Шарқ.
- Karimov, B. So'z xiyoboni: adiblar so'z ta'rifida. (*No Title*).
- Makhfuza, K., Karimov, B., Mukhammadiyev, S., Tursakhatov, E., Usmanova, S., Jumanova, D., ... & Gulomjon, K. N. Central Asian Journal of Literature, Philosophy, & Culture (CAJLPC). *Folklore*, 9, 14.
- Karimov, B. (2021). Herman Vamberi—mumtoz adabiyot tadqiqotchisi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3(3).
- Rasulova, S. The Nature of Fantastic Stories.
- MADINA, B. (2024). BADIY ASARLARDAGI MAKTUBLARNING G'ARBONA VA SHARQONA TARANNUMI RASULOVA SARVINOZ SADATOVNA, Toshkent Davlat Ona tili va adabiyoti Universiteti katta. *TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI*, 559.
- Rasulova, S. (2024, December). TO 'RT QAHRAMON VA TO 'RTTA YO 'L. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 12, pp. 172-175).

Reflection of the fate of victims of repression in the works of Tahir Malik

Sarvinoz Rasulova¹

Abstract

The article deals with the writer Tohir Malik's stories "Hunting", "Last Arrow", "Shaitanat" and the story "Erkin" express an opinion on the coverage of the fate of the victims of repression. The article analyzes the images of those arrested under the label of "enemy of the people", their wives, and children, and presents statistical data from scientific literature. As is known, Tohir Malik is one of the writers who has made a great contribution to the development of our literature, working in the genres of detective and fantasy. The article discusses the fact that regardless of the genre in which the writer writes, his works skillfully depict the fate of "political prisoners" of the thirties and fifties. It is also noted that the root of the story "Shaitanat" goes back to the severe consequences of the infamous policy of repression.

Keywords: *victims of repression, story, political prisoner, prison, story, image, national fiction, detective.*

References

- Мансур Мурод. (1997). Асадбеклар фожиаси. "Шайтанат"нинг 3-китобига сўнгсўз. – Т., – 368 б.
- Namozov, A. (2016). Tohir Malik gurunglari. – Toshkent: O'zbekiston. – 252 b.
- Репрессия. 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы большого террора из Узбекистана, 1937 год, декабрь. – Т.: Шарқ, 2008.
- Rasulova, S. (2025). Tohir Malik qissalari poetikasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Т., – 149 b.
- Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. (2006). Масъул муҳаррир: филол. ф.д, проф. Н.Каримов. – Т., Шарқ,
- Тоҳир Малик. (2004). Танланган асарлар. 1-жилд. – Т., Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2004). Танланган асарлар. 2-жилд. – Т., Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2005). Танланган асарлар. 3-жилд. – Т., Шарқ.
- Тоҳир Малик. (2011). Ов. – Т., Шарқ.
- Шамсутдинов Р. (2007). Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август

¹ Rasulova Sarvinoz – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Alisher Navoi University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: rasulovasarvinoz@navoiy-uni.uz; sarvina_ok@mail.ru

ORCID ID: 0009-0003-8717-2568

For citation: Rasulova, S. 2025. "Reflection of the fate of victims of repression in the works of Tahir Malik". *Uzbekistan: Language and Culture*. 2 (2): 241-250.

– 5 ноябр), 2-китоб / Масъул муҳаррир: филол. ф.д, проф.Н.Каримов. – Т.: Шарқ.

Karimov, B. So'z xiyoboni: adiblar so'z ta'rifida. (*No Title*).

Makhfuz, K., Karimov, B., Mukhammadiev, S., Tursakhatov, E., Usmanova, S., Jumanova, D., ... & Gulomjon, K. N. Central Asian Journal of Literature, Philosophy, & Culture (CAJLPC). *Folklore*, 9, 14.

Karimov, B. (2021). Herman Vamberi—mumtoz adabiyot tadqiqotchisi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3(3).

Rasulova, S. The Nature of Fantastic Stories.

MADINA, B. (2024). BADIY ASARLARDAGI MAKTUBLARNING G'ARBONA VA SHARQONA TARANNUMI RASULOVA SARVINOZ SADATOVNA, Toshkent Davlat Ona tili va adabiyoti Universiteti katta. *TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI*, 559.

Rasulova, S. (2024, December). TO 'RT QAHRAMON VA TO 'RTTA YO 'L. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 12, pp. 172-175).